UO‘K 811.3

TILSHUNOSLIKDA PARENTEZA HODISASINING O‘RGANILISH TARIXI

G.M.Ibragimova

Tilshunoslikda parenteza hodisasi o‘z yechimini kutayotgan muammolar qatoriga kirib, tilshunoslar tomonidan kiritma konstruksiyalarning asosiy gap bo‘laklari bilan grammatik jihatdan bog‘lanmasligi ta’kidlanadi. Kiritmalar gapda biror sintaktik vazifa bajarmaydi, ular hukm ifodalashda bevosita ishtirok etmaydi va asosiy gap bilan bir sintaktik-struktur birlikni tashkil qilmaydi. Maqolada parentezaning tilshunoslar tomonidan o‘rganilishi masalasi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar*: parenteza, kiritma, kirish, izoh bo‘lak,vokativ va modal munosabatlar, prosodik xususiyat, kirish va kiritma so‘zlar, kirish va kiritma gaplar.*

В языкознании явление парентезы является одной из проблем, ожидающих своего решения, и лингвисты подчеркивают, что вставные конструкции грамматически не связаны с главными предложениями. Вставные конструкции не выполняют в предложении никакой синтаксической функции, не участвуют непосредственно в высказывании предложения и не образуют с основным предложением синтаксико-структурной единицы. В статье анализируется вопрос об изучении парентез лингвистами.

Ключевые слова: *парентеза, вводные конструкции, вставные конструкции, пояснительное предложение, звательные и модальные отношения, просодический признак, вводные и вставные слова, вводные и вставные предложения.*

KIRISH

“Parenteza” atamasi o‘zbek tilshunosligida kirish va kiritma so‘z, birikma, konstruksiya yoki gapga nisbatan qo‘llanilishi e’tirof etiladi. Ingliz tilida ham “Parenthesis” va “Introductories (introductory remarks)” terminlari bir-biriga sinonim sifatida parallel qo‘llaniladi.

Kirish va kiritma terminlari o‘rtasida farqlar mavjud bo‘lib, kiritma asosiy gap bilan grammatik jihatdan bog‘lanmagan, gapni murakkablashtiruvchi maxsus sintaktik kategoriya hisoblansa, kirish so‘zlovchining bildirayotgan fikriga munosabatini ifodalaydi.

MATERIAL VA USULLAR

Tilshunoslikda parenteza hodisasining o‘rganilishi tadqiqi uchun I.Toshaliyevning, “Hozirgi o‘zbek adabiy tilida kiritma konstruksiyalar”, A.Hojiyevning “Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati”, G‘.Abdurahmonovning “Ajratilgan ikkinchi darajali bo‘laklar”, N.Mahmudov va A.Nurmonovlarning “O‘zbek tilining nazariy grammatikasi (Sintaksis)”, H.Boltaboyevaning “Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilida gapning ajratilgan izoh bo‘laklari”, D.M.Jamoliddinovaning “Badiiy nutqda parantez birliklarning semantik-grammatik va lingvopoetik xususiyatlari”, D.V.Malyavin “Zamonaviy ingliz tilida gapdagi kirish elementlari va kiritmalar”, O.V.Dolgovaning “Ingliz ilmiy nasrida parentetik kiritmalarning shakli va vazifalari” kabi ilmiy asarlari tahlilga tortildi.

Muammoni o‘rganishda struktur, statistik tahlil, lingvistik tavsiflash tahlil usullari qo‘llandi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tilshunoslikda parenteza, kiritma so‘z, so‘z birikmasi, konstruksiya, gap hamda kirish so‘z, birikma va gap atamalari keng qo‘llaniladi.

Kirish va kiritmalar tilshunoslar tomonidan turlicha izohlanadi. Jumladan, tilshunos olim A.Hojiyev “Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati”da kirish va kiritma terminlarini qo‘yidagicha izohlaydi:

Kiritma so‘z. Gap bo‘laklari bilan formal-grammatik bog‘lanmagan, asosiy fikrga yo‘l-yo‘lakay qo‘shimcha fakt bayon qiluvchi, to‘ldirish, aniqlik kiritish maqsadida qo‘llanuvchi

so‘z. Kiritma so‘z, kirish so‘zdan farqli holda, modal ma’no ifodalamaydi, gap boshida kelmaydi: *...allaqanday bir tergovchini chaqirtirib (chaqirib emas), xo‘p so‘kkan emish* (A.Qahhor).

Kiritma so‘z birikmasi. Xuddi kiritma so‘zga o‘xshash funksiyani bajaruvchi so‘z birikmasi: *Odatda xotin-qizlarga chiroy bag‘ishlovchi narsalar ham (sochining jingalakligi) Soraxonga yarashmaydi* (M.Sultonova).

Kiritma tuzilma. Gap bo‘laklari bilan shakliy-grammatik bog‘lanmagan, asosiy gapdagi fikrga qo‘shimcha, yo‘l-yo‘lakay fakt bayon qiluvchi, to‘ldirish, aniqlik kiritish maqsadida qo‘llanuvchi tuzilma. Kiritma tuzilmalar, kirish tuzilmalardan farqli holda, modal ma’nolarini ifodalamaydi, gap boshida kelmaydi. Kiritma tuzilmalar so‘z birikmasi va gap shaklida bo‘ladi.

Kiritma gap. Xuddi kiritma so‘zga o‘xshash vazifani bajaruvchi gap: *Oltinchi brigadaning g‘o‘zasi, mana men hozirgina aylanib keldim, sira avj olmayapti* (Oybek).

Kirish so‘z. Gap bo‘laklari bilan sintaktik bog‘lanmagan, gap bo‘lagi vazifasida bo‘lmagan, gapning ayrim bo‘laklari yoki butun gapning mazmuniga so‘zlovchining turlicha munosabatini ifodalovchi so‘z: *Zokir ota, shubhasiz, juda tajribali paxtakor***.**

Kirish birikma. Xuddi kirish so‘z kabi funksiyani bajaruvchi so‘z birikmasi: *Shunday qilib, tarixiy shartnomaga qo‘l qo‘yildi* (Yashin).

Kirish tuzilma. Gap bo‘laklari bilan sintaktik bog‘lanmagan, gap bo‘lagi vazifasida bo‘lmagan, gapning ayrim bo‘laklari yoki butun gapning mazmuniga so‘zlovchining turlicha munosabatini ifodalovchi tuzilma. Kirish tuzilmalar so‘z birikmasi va gap ko‘rinishida bo‘lishi mumkin.

Kirish gap. Xuddi kirish so‘z kabi funksiyani bajaruvchi gap: *Qandingni ur, yulduzlaring juft tushgan bo‘lsa-chi, odam bolasi senlarni ajrata olmaydi! (*Oybek) [1. Б. 49–50].

Kiritmalar gapning ayrim bo‘laklari yoki butun ifodaga bo‘lgan so‘zlovchining subyektiv munosabatini, emotsional tuyg‘ularini ifodalaydi [2. B. 70].

Kiritmalar gapning umumiy mazmuniga yoki uning ayrim bo‘laklari bilan izohlash munosabatiga kirishadi. Kiritmalar gapning ayrim bo‘laklari yoki umumiy mazmuniga bo‘lgan izoh yoxud turli emotsional munosabatlarni anglatib, grammatik belgilariga ko‘ra kiritma bo‘laklar va kiritma birikmalarga ajratiladi. Kiritma bo‘laklar bir so‘zdan, birikmalar esa bir necha so‘zdan tashkil topadi.

Kirish so‘z, kirish gap, izoh bo‘laklar o‘zbek tili grammatikasining murakkablashgan sodda gaplar bo‘limida o‘rganiladi. Shu o‘rinda kirishlarning murakkab sodda gaplar tarkibidan o‘rin olishi masalasi G‘.Abdurahmonov, N.Mahmudov, A.Nurmonov, H.Boltaboyevalar tomonidan nazariy va amaliy jihatdan ko‘rib chiqilgan. G‘.Abdurahmonov va H.Boltaboyeva murakkablashgan sodda gaplarni ajratilgan bo‘lak, undalma va izoh bo‘laklar, kirish so‘z va kirish gaplar orqali vujudga kelishini aytadi.

G‘.Abdurahmonov murakkab gap tarkibida ikki xil predikativ birlik, hukm bo‘lishi; bu predikativ birlik yoki hukmning biri asosiy bo‘lib, ikkinchisi to‘liq bo‘lmagan hukm, yarim predikativlik ekanligi; hukm gapning umumiy mazmunidan anglashilsa, to‘liq bo‘lmagan hukm, yarim predikativlik bu xil gapning ajratilgan bo‘laklari yoki undalmalari yoxud kirish bo‘laklari orqali ifodalanishi kabi bir qator farqli belgilarini ajratadi [3. B. 40].

N.Mahmudov, A.Nurmonovlar esa mazmuniy-sintaktik munosabat tarkibiga kiruvchi vokativ va modal munosabatlar shakliy jihatdan undalma va kirishlar orqali ifodalanishini ta’kidlashadi [4. B. 20].

O‘zbek tilidagi kiritma konstruksiyalar bo‘yicha I.Toshaliyev “Hozirgi o‘zbek adabiy tilida kiritma konstruksiyalar” nomli monografiyasida: 1) kiritma konstruksiyalarning alohida sintaktik kategoriya ekanligini tasvirlash – umumiy xarakteristikasini berish; 2) kiritma konstruksiyalarning asosiy gap bo‘laklari va qismlariga nisbatan sintaktik-semantik munosabatini belgilash; 3) kiritma konstruksiyalarning tuzilishi va qo‘llanishiga ko‘ra asosiy struktur tiplari hamda funksional-semantik turlarini analiz qilish kabi masalalarni yoritgan [5. B. 4].

Parentez birliklarni gap va matnga munosabati masalasida D.M.Jamoliddinova uning so‘z, birikma, gap, murakkab butunlik, tinish belgilari shaklidagi turlari, asosan, o‘zlari mansub bo‘lgan muayyan bir gap doirasida o‘rganilishini va parantezalar bilan mazkur gap o‘rtasida sintaktik aloqaning yo‘qligi yoki qisman mavjudligi turli shakllarda bo‘lishini aytib o‘tadi. Mualliflarning ma’lumot berishicha, parenteza

va u kirgan gap orasidagi semantik-grammatik, mantiqiy-shakliy yoki gap doirasidan tashqariga chiqmagan holda izlanadi [6. B. 33]

Holbuki, parentezaning haqiqiy sintaktik, kommunikativ, mantiqiy, lingvopoetik mohiyatini gapdan tashqariga chiqmasdan turib tayin etish qiyin. Birgina misol: “Demak, mehmonlar ertaga keladi” gapi tarkibidagi “demak” parentezasining ma’nosi faqat shu gap doirasida tushunarli emas, shubhasiz, bu gapdan oldin, masalan, “Dovon yo‘li bugun yopiq ekan” yoki “Mehmonlar bugun band ekan” kabi yoki yana boshqa qandaydir gaplar bo‘lishi lozim. Shundagina mazkur paranteza o‘z semantikasini namoyon qiladi, ayni paytda faqat muayyan mazmunnigina emas, balki gaplar o‘rtasidagi bog‘lanishlarning ham ifodachisi, matn shakllanishining ham o‘ziga xos unsuri ekanligi ko‘rinadi. Shu oddiy bir misoldan ko‘rinib turganiday, parenteza tadqiqi gap doirasida emas, balki undan katta butunlik, ya’ni matn (diskurs) doirasida olib borilishi maqsadga muvofiq.

D.M.Jamoliddinova “Badiiy nutqda parantez birliklarning semantik-grammatik va lingvopoetik xususiyatlari” nomli monografiyasida parentez birliklarni lingvopoetik jihatdan tadqiq etgan. Olima parentez konstruksiyalarning ikki funksional tipini, ya’ni subyektiv-modal (kirish) va obyektiv-izohlovchi (kiritma) tiplarini ajratadi. Bu ikki turdagi parentezaning farqlarini misollar yordamida yorqin ko‘rsatib bergan.

Olima asosiy gap (yoki matn) va parenteza o‘rtasidagi mazmuniy-mantiqiy hamda leksik-grammatik aloqani “introduktiv aloqa” deb ataydi va quyidagi xulosaga keladi: “Parantezalar badiiy matnda gap bo‘lagi, gap va muayyan mikromatn bilan bevosita aloqalanishi, so‘z, so‘z birikmasi, gap (sodda va qo‘shma) va mikromatn shaklidagi parantezalar turli gap bo‘laklari, yaxlit gap bilan aloqalanishi mumkin, ammo so‘z va so‘z birikmasi shaklidagi parantezalar mikromatn bilan deyarli aloqalana olmaydi” [7. B. 36] . Shundan kelib chiqib, olima parentetik kiritmalarni struktural jihatdan ega, kesim, to‘ldiruvchi, aniqlovchi, hol bilan bevosita aloqalangan turlarga bo‘ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, biz ingliz roman, pesa va esselaridagi gap bo‘laklari bilan bog‘langan parentez birliklarning ayrimlari ingliz tilida mavjud emasligini va, aksincha, ba’zilari D.M.Jamoliddinovaning ishiga ko‘ra o‘zbek tilida kuzatilmaganligini, lekin biz tahlilga tortgan ingliz tili materiallarida struktural jihatdan so‘z, otlashgan olmosh, so‘z birikmasi, sifatdoshli birikma, tarz holi vazifasidagi gerundiy, sodda va qo‘shma gap, payt, shart ergash gap, yil ko‘rsatkichi, boshqa til vositasi orqali ifodalangan, ta’kidlovchi parentez, qiyos, tarz holi, tarz holini kuchaytiruvchi, qo‘shma ot-kesimning ot qismi, ega va kesim inversiyasi ko‘rinishlaridagi parentetik birliklarning uyushiq ega, to‘ldiruvchi, uyushiq to‘ldiruvchi, aniqlovchi va kesim bilan munosabatga kirishuvchi boshqa turlari ham borligini aniqladik [6. B. 34].

B.I.Boltayeva “O‘zbek tili frazeologik birliklarining transformatsiyasi (semantik-pragmatik tahlil)” nomli dissertatsiyasida frazeologik birliklarda tarkibiy kiritmalarni aniqlab, kiritmalarning sodda, murakkab, allyuziya, uslubiy distributsiya, so‘z birikmalari yordamida ma’no (semantika) rivojlantirilgan turlarini ajratgan [8. B. 17].

“O‘zbek tili grammatikasi” kitobida kiritmalar gapning ayrim bo‘laklari yoki butun ifodaga bo‘lgan so‘zlovchining subyektiv munosabatini, tuyg‘ularini, kirish gaplar esa gapning biror bo‘lagi yoki umumiy mazmuniga bo‘lgan so‘zlovchining munosabatini ifodalashi qayd etilgan [9. B. 89].

Biz esa kirish va kiritmalarga tilshunoslar tomonidan berilgan ta’riflarga tayanib “kiritma – bu til hodisasi sanaladi, chunki u bir qolipga solingan kundalik muloqotda qo‘llaniluvchi leksik-frazeologik elementlardan tashkil topgan, kirish esa nutq hodisasi bo‘lib, ular bir qolipga solinmagan va kundalik muloqotda ko‘p qo‘llanilavermaydigan til birliklaridir”, deya o‘zimizning ishchi ta’rifimizni kiritdik.

German tilshunosligida gapning ajratilgan bo‘lagi hisoblanmish parentezaning prosodik xususiyatlari D.Bolindjerning ilmiy ishida o‘z aksini topgan [10. B. 72].

Ingliz tili grammatikasi bo‘yicha izlanishlar olib borgan L.N.Polikarpova va E.A.Fenovalar kirish va kiritma vositalar o‘rtasida ularni chegaralash uchun yetarli mezonlarning mavjud emasligini aytib, ularni farqlamaydilar [11. B. 104; 12. B. 51], shu sababli u va boshqa elementlarni “parenthesis” deb ataydilar, bu esa chalkashlikka olib keladi, kiritma hamda kirish vositalarni ajratishga asos bo‘la olmaydi.

D.Bolinjer “parenthesis” atamasi deganda ularning grammatik izolyatsiyasini birlashtiruv-

chi belgi deb qarab, infinitivli so‘z birikmalarini, ergash gaplarni, ajratilgan ikkinchi darajali bo‘laklarni, kiritma elementlarni va kirishlarni tushunadi. U “parenthesis” punktuatsiya qoidalarini o‘rganish bilan bog‘liq deb tinish belgilaridan qavs va tireni o‘rganish bo‘limida ko‘rib chiqadi. Uning fikriga ko‘ra, bu punktuatsion belgilar bilan kiritma elementlar gapning asosiy qismiga nisbatan qo‘shimcha, ikkinchi darajali ma’lumot beradi [10. B. 75].

Rus tilshunoslaridan L.N.Polikarpova [11], A.X.Vostokov [13], A.V.Chupsova [14] kabilar german tillaridagi parentezaning og‘zaki va yozma nutqdagi xususiyatlarini tadqiq qilishgan.

Parenteza masalasi uzoq vaqtlardan buyon tilshunoslarning diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Sintaktik jihatdan bog‘langan nutq ba’zan gapning boshqa bo‘laklari bilan grammatik jihatdan bog‘lanmagan turli birliklarga nisbatan alohidalik (mustaqillik) kasb etadi. 1838-yilda parentetik elementlar A.X.Vostokov tomonidan o‘rganilib, ularning nutq hosil qilishdagi muhim roli ko‘rsatib o‘tilgan [13. B. 47].

L.N.Polikarpova ingliz tilidagi kommentativ parentezani sintaktik qurilmalarning birligi sifatida tadqiq qiladi [11. B. 82]. Muallif kommentativ parentezaning funksional ahamiyatini o‘rganib, uning gapdagi illokutiv ma’nosi va kommunikativ vazifasini bajarishdagi tutgan o‘rnini tahlil qilgan.

Lingvistik adabiyotlarda parentetik birliklar va ular bilan bog‘liq masalalar sintaksisning o‘rganilishi kerak bo‘lgan dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qoldi. Ayniqsa, keyingi yillarda bu sohada jadal olib borilayotgan ko‘p ishlar nutqning tuzilishini o‘rganishning prinsipial muhimligidan dalolat beradi.

Lingvistik tadqiqotlar jarayonida parentetik elementlar, asosan, kiritma va kirish birliklar sifatida bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilgan holda o‘rganilgan. Qolaversa, yaqin vaqtlargacha ushbu masala bo‘yicha tadqiqotlar asosan tilning yozma shakli materiali asosida olib borilar, bu ikki hodisani chegaralashda semantik-stilistik farqlarga asoslanilar edi. Lekin parentetik kiritmalar ma’nolarining tasniflarida odatda xilma-xil funksional uslublarda parentezalarning u yoki bu turi qo‘llanilishiga etarli darajada e’tibor qaratilmas edi.

So‘nggi yillardagi tadqiqotlar parenteza har qanday boshqa sintaktik hodisa singari “umuman tilda” emas, balki konkret funksional uslub miqyosida o‘rganilishi kerakligini ko‘rsatmoqda. Aks holda shakl va mazmunning dialektik birligi, kolligatsiya va kollokatsiya – nafaqat sintaktik elementlarning, balki boshqa har qanday til birliklarining xilma-xil darajalarda o‘rganilishini inkor qiladi. Aynan shuning uchun hozirgi kunda parentetik vositalarning prosodik chegarasini nutqning funksional xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tadqiq qilish dolzarb hisoblanadi.

Tilshunoslikda funksional uslub yo‘nalishida parentetik vositalarning shakllari, vazifalari hamda prosodik shakllantirilishiga muvofiq ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, A.E.Stungene tomonidan kiritma vositalarning og‘zaki nutq matnidagi funksional tomonlari borasida tadqiqot o‘tkazilgan [15. B. 9]. Natijada kirish va kiritma gaplar diapazonining quyi qismi pasaytirilgan qattiqlik, tezlashtirilgan sur’at bilan talaffuz qilinishini hisobga olgan holda, muallif tomonidan prosodik belgilardan kelib chiqib kirish va kiritmani chegaralab bo‘lmasligi haqida xulosa chiqarilgan. Biroq, E.A.Fenova tomonidan keyinchalik olib borilgan izlanishlar real holat bunday emasligini ko‘rsatadi [12. B. 63].

Bundan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, parentetik vositalarning semantik-struktur va prosodik xususiyatlarini o‘rganish tadqiqotchiga ularning prosodik shakllanishiga nisbatan xulosalarini kengaytirishga hamda bu konstruksiyalarning prosodiyasi ancha turli-tumanlik kasb etadi, degan xulosaga kelishga undaydi. Shu bilan birga, kiritma konstruksiyalarning barcha asosiy prosodik parametrlari – ohang, diapazon qismi, tovush balandligi o‘zgarishining intervali, chastota, amplituda, intensivlik, pauza, temp va pirovard natija melodiya hisoblanadi.

A.V.Chupsova o‘z tadqiqotida ingliz tilidagi parentetik vositalarning tabiatini aniqlash, zaruriy uslubiy effekt yaratishda ulardan samarali foydalanish hamda tarjimada parentezaning asosiy stilistik vazifalari va mazmunini saqlab qolish imkoniyatlariga alohida e’tibor qaratgan [14. B. 23].

Tilshunos olim O.S.Axmanova kiritmani gapning boshqa qismi bilan grammatik bog‘lanmagan so‘z va so‘z birikmalari, deb ta’riflaydi. Kiritmalar kirishlardan gapga qo‘shimcha ma’lumot olib kirishi bilan farq qiladi: *Jurnalo` poselskomu xozyaystvu (dva) ya velel vo`slat v Yaltu.*

Olima kirishlarni gap bo‘laklari bilan formal-grammatik bog‘lanmagan, gap bo‘lagi bo‘l-

magan, so‘zlovchining aytilayotgan fikrga munosabatini, berilgan fikrni so‘zlovchining oldingi yoki keyingi nutqiga munosabatini ifodalovchi birlik, deb aytadi [16. B. 77].

Ingliz tilida kiritma elementlar (konstruksiyalar) gapning bosh va ikkinchi darajali bo‘laklari bilan sintaktik va intonatsion jihatdan bog‘lanmagan bo‘laklar deb ta’riflanadi. Kiritma elementlar gap bo‘laklari bilan faqat semantik jihatdan bog‘langan bo‘ladi. Kiritma elementlar gapning boshida, o‘rtasida va oxirida kelishi mumkin.

Parenteza so‘zi ingliz tilida “parenthesis” shaklida berilib, uning ma’nosi “kiritma so‘z”, “() figurali qavs”, “tire yoki vergul” kabi tinish belgilarini bildiradi yoki bu ingliz tilshunosligida bitta “(“ yarim oy belgisi “parenthesis” bo‘lib, uning ko‘plik shakli esa ikkita “()” yarim oy, ya’ni “parentheses” shaklida beriladi. Bu belgilar yordami asosida biron-bir ibora yoki gap to‘ldiriladi, degan fikrlar talqin etiladi [7. B. 43]. Grammatik jihatdan olib qaralganda, parentez birliklar vergul bilan ajratilib, uning vazifasi qo‘shma gap yoki katta hajmdagi matnlarda bir gapni boshqasidan ajratib, uni izohlashga xizmat qiladi, badiiy adabiyot nuqtayi nazaridan olib qaralganda esa bu ingliz tilshunosligida “to put beside” tarzida ifodalanib, “yoniga qo‘yish, joylashtirish” kabi ma’nolarni anglatadi. Yozuvchi ma’lum bir voqelik, jarayonni ochib berishda, uni o‘quvchiga tushunarli qilib yetkazishda bu kabi parentez birikmalardan foydalanadi. Shuni yana ta’kidlash kerakki, ingliz tilshunosligida parentez birliklar ifodasi uchun yarim oy shaklidan tashqari (-, [ ], { }) kabi shakllar yoki verguldan ham foydalanilishi ta’kidlanadi:

Joe, accompanied by his trusty mutt, was always welcome

“Bill shook hands with [his son] Al.

Joe – a student who is also an athlete, actor, and writing coach – does not have enough time to join the committee.

Birinchi keltirilgan misolda “accompanied by his trusty mutt” birikmasi gapda ikki tomonidan vergul bilan ajratilib, gapning boshqa qismiga grammatik aloqaga kirishmagan bo‘lsa ham, umumiy kontekstda u parenteza vazifasini bajaryapti. Ikkinchi misoldagi “his son” birikmasi ham kiritma element bo‘lib, katta qavs bilan gapning boshqa qismidan ajratilgan holda kiritma vosita sifatida qo‘llangan.

Uchinchi gapdagi “a student who is also an athlete, actor, and writing coach” kiritma elementi gapning boshqa qismidan tire bilan ajratilgan.

Parentez birliklarni gapning boshqa qismidan ajratib turuvchi ishoralarning kelib chiqishi, maqsad va vazifalari mavjud. Bu belgilar parentez birliklar bilan ilk bor 1572 yil rasmiy tarzda ingliz tilida chop etilgan nashrlarda qo‘llanilgan [10. B. 27]. To‘lqinsimon belgi “{ }” hamda kvadratsimon “[ ]” belgilar qavsning bir turi bo‘lib, bularni fransuz, nemis hamda ingliz tillarida yarim oy shaklidagi qavslarning ichidagi gapga yana qo‘shimcha tarzdagi izohlovchi so‘z yoki gapni kiritishda keng qo‘llangan. Fikrimizning isboti sifatida “The Chicago Manual of Style” (“Chikago uslubshunoslik darsligi”) 13-nashridan misollar keltiramiz:

*We’re going to make turkey, potatoes, and ham for Thanksgiving dinner. (**I was also thinking about making pies.**)*

*Mary and Dean finally sold their house. (**I was afraid it would never sell**.)*

*Candace threw me a birthday party on Saturday. (**It was such a nice surprise!**)*

*Sam (**the boy from the school**) helped me with my homework.*

*She drove 60 [**miles per hour**] on the highway to town* [13. Б. 16].

Yuqorida keltirilgan misollarda qo‘llanilgan kiritma so‘z va birikmalar gapning boshqa qismidan qavs (), katta qavs [] bilan ajratilmoqda.

XULOSA

Jahon tilshunosligida bugungi kungacha parentetik kiritmalarning gap va matnga munosabati masalasida olib borilgan izlanishlarda uning so‘z, so‘z birikmasi, gap, murakkab butunlik, tinish belgilarining qo‘llanilishiga ko‘ra turlari, parentezaning semantik-grammatik, mantiqiy-shakliy tomonlari tadqiqi gap doirasidan tashqariga chiqmagan holda amalga oshirilgan.

Kirish va kiritmalar tilshunoslikda ko‘pincha yonma-yon qo‘llanadi.Kirish va kiritmalar sodda gaplar tarkibida kelib, ularning murakkablashuviga xizmat qiladi. Ular gap bo‘laklari bilan mos-

lashuv, boshqaruv, bitishuv orqali bog‘lanmasa ham, gap va uning bo‘laklariga tegishli bo‘lib, so‘zlovchining aytilayotgan fikrga munosabati, javobi, o‘z suhbatdoshiga murojaatini ifodalaydi**.**

Adabiyotlar:

1. *Ҳожиев А.* Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – 164 б.

2. Ўзбек тили грамматикаси / Масъул муҳаррирлар: Ғ.А.Абдураҳмонов ва бошқ. II томлик. I том. – Тошкент: Фан, 1975. – 610 б.

3. *Абдураҳмонов Ғ.* Ажратилган иккинчи даражали бўлаклар. – Тошкент: Фан, 1995. – 221 б.

4. *Маҳмудов Н., Нурмонов А.* Ўзбек тилининг назарий грамматикаси (Синтаксис). – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 232 б.

5. *Тошалиев И.* Ҳозирги ўзбек адабий тилида киритма конструкциялар. – Тошкент: Фан, 1976. – 124 б.

6. *Жамолиддинова Д.М.*, *Қадирова М. Э., Султонова Ў.С***.** Парантез бирликларнинг гап ва матнга муносабати // Молодой ученый, 2016. – № 3.1 (107.1). – Б. 33–35.

7. *Жамолиддинова Д.М.* Бадиий нутқда парантез бирликларнинг семантик-грамматик ва лингвопоэтик хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 2011. – 133 б.

8. *Болтаева Б.И.* Ўзбек тили фразеологик бирликларининг трансформацияси (семантик-прагматик таҳлил): Филол.фан.бўй.фал.док. (PhD)... дисс. автореф. – Самарқанд, 2019. – 49 б.

9. Ўзбек тили грамматикаси. II томлик. II том. – Тошкент: Фан, 1976. – 560 б.

10. *Bolinger D.* Intonation and Its Uses: Melody in Grammar and Discourse. Stanford, California: Stanford University Press. 1989. – 186 p.

11. *Поликарпова Л.Н.* Комментативная парентеза как единица композиционного синтаксиса (на материале английского языка). Дисс. ...канд.филол.наук. – Барнаул, 2011. – 193 с.

12. *Фенова Е.А.* Соотношение синтаксической просодии парентетических внесений и предицирующей паузы: (на материале английского языка). Дисс...канд.филол.наук.–Москва, 1984. – 150 с.

13. *Востоков А.Х.* Русская грамматика. – Санкт-Петербург: Императорской Академии наук, 1844. – 450 с.

14. *Чупцова А.В.* Функции парентезы в оригинале и переводе (на материале произведений У.Фолкнера и их переводов на русский язык)// Иностранные языки и языкознание. Санкт-Петербургский государственный университет, 2019. [Электронный ресурс]. URL: http://www.allbest.ru/ (Дата обращения: 23.02.23)

15. *Стунгене А.Э.* Проблема вводного и вставного элемента в потоке речи: Автореф.дисс...канд. филол.наук. – Москва,1974. – 21 с.

16. *Ахманова О.С.* Словарь лингвистических терминов. – Москва: Советская энциклопедия, 1969. – 606 с.

HISTORY OF THE STUDY OF PARENTESIS IN LINGUISTICS

G.M.Ibragimova[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2023. 3 (71). 122-129.

[1]Andijan State Institute of Foreign Languages, Andijan, 170100, str. Boburshoh, 5 (Uzbekistan). E-mail: asifl_info@edu.uz

Keywords*: parenthesis, introductory remarks, parenthesis, comment section, vocative and modal relations, prosodic feature, introductory and parenthetical words, introductory and parenthetical sentences*

In linguistics, the phenomenon of parentheses is one of the problems awaiting its solution, and it is emphasized by linguists that the input constructions are not grammatically connected with the main clauses. Introductions do not perform any syntactic function in the sentence, they do not directly participate in the sentence expression and do not form a syntactic-structural unit with the main sentence.

In linguistics, the terms parenthesis, introductory word, phrase, construction, clause, and introductory word, compound, and sentence are widely used.

When we talk about introductions and parenthesis, they are interpreted differently by linguists.

A word that is not formally and grammatically connected with the parts of the sentence, and is used for the purpose of filling in and clarifying the main idea. The introductory word, unlike the parenthetical word, does not express a modal meaning, it does not appear at the beginning of the sentence.

Introduction phrase is a phrase that performs the same function as a preposition.

Input structure is not formally and grammatically connected with the parts of the sentence, in addition to the idea in the main sentence, which describes the fact along the way, and is used for the purpose of filling and clarifying. Introductory structures, unlike introductory structures, do not express modal meanings, they do not appear at the beginning of the sentence. Input structures are in the form of phrases and sentences.

Introductory sentence is a sentence that performs the same function as an introductory word.

The language materials we analised allowed us to define different structural types of parentheses in a simple word, a substantivized pronoun, a word combination, a participle construction, a gerund in the function of an adverbial modifier of manner, a simple and a compound sentence, a conditional clause, paretheticals expressed by a year indicator, a different language means, emphasized, comparative, adverbial modifier of attendant circumstances, intensification of the adverbial modifier of manner, predicative, subject-verb inversion having a relationship with a homogeneous subject, an object, a homogeneous object, an adjective and a predicate.

In Uzbek grammar books it is said that the inputs represent the speaker's subjective attitude and emotional feelings towards certain parts of the sentence or the whole expression and the introductory sentences represent the speaker's attitude towards a part or general content of the sentence.

Whereas based on the definitions given by scholars we can say that an inserted element is a linguistic phenomenon because it consists of standardized lexico-phraseological elements used in everyday communication, and the parenthesis is a speech phenomenon that is not standardized and rarely used in everyday communication.

References:

1.Hojiev, A. *Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati* [Explanatory dictionary of linguistic terms]. Tashkent: O'qituvchi, 1985.

2. Abdurahmonov, G'. (ed.) (1975) O'*zbek tili grammatikasi* [A Grammar of the Uzbek language].In 2 volumes.Vol. I. Tashkent: Fan.

3. Abdurahmonov, G'. (1995) *Ajratilgan ikkinchi darajali bo'laklar* [Detached secondary parts]. Tashkent: Fan.

4. Mahmudov, N., Nurmonov, A. (1995) O'*zbek tilining nazariy grammatikasi* [Theoretical grammar of the Uzbek language (Syntax)]. Tashkent: O'qituvchi.

5. Toshaliev, I. (1976) H*ozirgi o'zbek adabiy tilida kiritma konstruksiyalar* [Introductory constructions in the modern Uzbek literary language]. Tashkent: Fan.

6. Jamoliddinova, D.M. (et.al.) (2016) *Parantez birliklarning gap va matnga munosabati* [Relationship of parenthetical units to a sentence and a text]. *Molodoj uchenyj*. No 3.1 (107.1). Pp. 33-35.

7. Jamoliddinova, D.M. (2011) *Badiiy nutqda parantez birliklarning semantik-grammatik va lingvopoetik xususiyatlari* [Semantic-grammatical and linguopoetic features of parenthetical units in literary speech]. Tashkent: Fan.

8. Boltaeva, B.I. (2019) O'zbek tili frazeologik birliklarining transformatsiyasi (semantik-pragmatik tahlil) [Transformation of phraseological units of the Uzbek language (semantic-pragmatic analysis)]. Abstract of Dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD) in philological Sciences. Samarqand.

9. Abdurahmonov, G'. (ed.) (1976) O'*zbek tili grammatikasi* [A Grammar of the Uzbek language]. In 2 volumes.Vol.II. Tashkent: Fan.

10. Bolinger, D. (1989) *Intonation and Its Uses: Melody in Grammar and Discourse*. Stanford, California: Stanford University Press.

11. Polikarpova,L.N. (2011) Kommentativnaya parenteza kak edinica kompozicionnogo sintaksisa (na materiale anglijskogo yazyka) [Commentary Parentesis as a Unit of Composite Syntax (on the Material of the English Language)]. The Dissertation for the Candidate of Philological Sciences. Barnaul.

12. Fenova, E.A. (1984) Sootnoshenie sintaksicheskoj prosodii parenteticheskih vnesenij i prediciruyushchej pauzy: (na materiale anglijskogo yazyka) [Correlation between the syntactic prosody of parentetic introductions and the predicating pause: (based on the material of the English language)]. The Dissertation for the Candidate of Philological Sciences. Moscow.

13. Vostokov, A.H. (1844) *Russkaya grammatika* [Russian grammar]. Sankt-Peterburg: Imperatorskoj Akademii nauk.

14. Chupcova, A.V. (2019) Funkcii parentezy v originale i perevode (na materiale proizvedenij U.Folknera i ih perevodov na russkij yazyk) [Functions of Parentesis in the Original and in Translation (Based on W. Faulkner's Works and Their Translations into Russian)].*Inostrannye yazyki i yazykoznanie.* Sankt-Peterburgskij gosudarstvennyj universitet, 2019. [Online].URL: http://www.Allbest.ru/(Date of Access: 23.02.23)

15. Stungene, A.E. (1974) Problema vvodnogo i vstavnogo elementa v potoke rechi [The problem of introductory and insertive element in the flow of speech]. Abstract of Dissertation for the Candidate of Philological Sciences.Moscow.

16. Ahmanova, O.S. (1969) *Slovar' lingvisticheskih terminov* [Dictionary of linguistic terms]. Moscow: Sovetskaya enciklopediya.

Muallif haqida ma'lumot:

IBRAGIMOVA Gulchehra Madaminjanovna – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Andijon davlat chet tillari instituti Ingliz tili nazariy aspektlari kafedrasi katta o'qituvchisi. E-mail: ibragimovagul42@gmail.com